# DAVLATCHILIGIMIZ TARIXIDA FAOL BO'LGAN AYOLLAR.

**Chubaeva Gulnora**
Podpolkovnik, Yangiqo'rg'on tuman IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor

**Annotatsuya**. Maqolada millatimiz tarixida taraqqiyotga xissa qo'shgan barcha sohadagi ayollarimizning xayot yo'li va jamiyat rivijiga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi.
**Kalit so'zlar**. Ayol, me'ros, ma'naviyat, olima, hissa, shoira, huquqshunos, taraqqiyot.
**Аннотация.** В статье рассматривается жизненный путь и вклад в развитие общества наших женщин из всех сфер, которые внесли свой вклад в прогресс в истории нашей страны.
**Ключевые слова**. Женщина, наследие, духовность, ученый, вклад, поэт, юрист, прогресс.
**Annotation.** The article examines the life path and contribution to the development of society of our women from all spheres who have contributed to the progress in the history of our country.
**Keywords**. Woman, heritage, spirituality, scientist, contribution, poet, lawyer, progress.

Yangi taraqqiyot bosqichida ayol-qizlarga aloxida e'tibor qaratilib, ularni ulug'lanmoqda. Tarixning barcha bosqichlariga nisbatan ayol-qizlarimizning haq-huquqlarini taъminlash yuqori darajaga ko'tarildi. Xotin-qizlarning g'oya va maqsadlari amalga oshishi, jamiyatda chinakam baxtli yashashi uchun munosib sharoit yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu yo'nalishda hozirga qadar yuzga yaqin normativ-hujjat qabul qilingani fikrimiz tasdig'idir.

Bugun milliy davlatchiligimiz tarixiy tajribasi asosida sivilizasiya rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy-madaniy merosini o'z ichiga olgan insonparvar demokratik davlat, ochiq va adolatli jamiyat - yangi O'zbekiston barpo etilmoqda.

O'zbek davlatchiligi tarixida ma'naviyaatimizga xissa qo'shgan alloma ayollarimizni madaniy merosiga nazar tashlamoq, Qodiriy bobomiz aytganidek, moziyga nazar tashlab faoliyat olib bormoq xayrlidir.

Mamlakatimiz hududida tashabbuskor, uddaburon, masъuliyatli va yurtimizda hayotga tatbiq etilayotgan keng ko'lamli hayot jabxalarida faol ishtirok etgan xotin-qizlar salmog'i tarixan ko'pdir va yillardan-yillarda ortib borgan. Ayollarning bunday tashabbuskorlik harakatining ildizi uzoq yillarga borib taqaladi.

Ana shu boy merosimizga xissa qo'shgan ayollaimiz, afsonaviy ajdodlarimizdir. Jumladan, To'maris xalq qahramoni sifatida xalqni boshqarish bilan birga, xalqni muhofaza etishda bosh-qosh bo'la olgan, dushmanni yer tishlatib, vatanini himoyasini ta'minlash bilan tarixda qolgan qahramon ayoldir.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings
INTERNATIONAL CONFERENCES OF PRACTICE

Mamlakatimiz tarixiga nazar tashlaganimizda ayollar ichida fiqx ilmi sohibalari yashab o'tgarligi va jamiyat taraqqiyotiga munosib xissa qo'shganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Fotima Samarqandiya XII asrda otasi Muxammad Samarqandiy bilan el ulusga yo'riqnomalar bergan ayol ulamo sanaladi.

Mahlarayim Nodir - o‘zbek shoirasi, Qo‘qon (o‘zbek) adabiyotining klassikasi, Andijon hukmdori qizi, Umarxon (Umar) xotini, Qo‘qon hukmdori, shoir, shoir va olimlar homiysi.

Uvaysiy va Mahzuna bilan bir qatorda Qo’qon ayollar she’riyatining vakili hamdir. U turli xil taxalluslar ostida she’rlar yozgan bo’lib, Nodira — o’zbek tilida, Kamila yoki Maknuna - fors-tojik tilida. Uning qo’lyozma devonlarida turli janrlar — g’azallar, muhammas, musaddas, musammanlar, tarjibandlar va boshqalar bor. Uning she’riy devoni sevgi, sadoqat va halollik madhiyasi hisoblanadi. U birinchi navbatda insonning qadr-qimmatini e’zozlashni oldimizdagi burchimiz deb biladi. Insonlar baxtli yashashini ko’rganda o’zini baxtiyor his qiladi, ayniqsa, ayollar qadrlanishini yuqori baholaydi. Ayolni nafaqat go’zallikni ramzi sifatida ta’riflaydi, ayollarni nozik hilqatligi uchun asrashni tarannum etadi. Shuningdek, ayolning ongini, his-tuyg’ularini, qadr- qimmatini ham qadrlashga chaqiradi.

Zulfiya Isroilova - o’zbek milliy ayollarining sadoqat timsoli. O’zbek millati ijodkori, O’zbekiston xalq shoirasi. U SSSR davlat mukofoti laureati (1976), Neru va Nilufar xalqaro mukofoti laureati, Sotsialistik mehnat qahramoni (1984). Yorqin rassom, oddiy inson qalbining nozik bilimdoni, shoira va yozuvchi turli janrlarning asarlarini yaratadi: she’rlar, balladalar, elegiyalar, lirik she’rlar, hikoyalar, ocherklar, publitsistik maqolalar va gazeta yozishmalari.

Xadicha Sulaymonova - yuridik fanlari doktori, O’zbekssr Adliya vaziri, O’zSSR Oliy sudi raisi lavozimlarida faoliyat yurritgan. O’zbek tilida jinoyat huquqining birinchi darsligi muallifi. XX asrda o'zbek ayollaridan birinchi bo'lib, yetuk huquqshunoslik ilmini egallagan. Xadicha Sulaymonova kichikligidan o'zining bilim olishga bo'lgan intilishi bilan ajralib turgan, iqtidori, mehnatkash hamda adolatparvar qiz bo'lib, o'z tengdoshlari oracida zukkoligi bilan ajralib turgan. Aynan u balog'at yoshiga etish davrlari mamlakatimiz xududida juda katta qiyinchiliklar davri bo'lgan. Turkicton o'lkacida oktabr inqilobining ro'y bergan va jamiyat tubdan o'zgargan. Davlat boshqaruvi, huquq tizimi almashingan

Xadicha Sulaymanovaning otaci erta vafot etadi, bu vaqtlarda mamlakatimiz xududida 1926-yildagi “Hujum” harakati amadga oshgan davr ko'plab xotin-qizlar paranji tashlash xarakatlarida ishtirok etgan. Ulardan anchasi o'z otalari, aka-ukalari va turmush o'rtoqlari tomonidan o'ldirilgan. Eski tizim parchalangan va madaniyatda yangi holatlar shakllana boshlagan jarayon bo'lgan. Yosh Xadicha jamiyatni yukcaltirishga qaratilgan maqcadlarini amalda ko'rishga harakat qilgan.

Xozirgi kunda qonunni hayotga tadbiq etuvchi qatlamga o'z bilimlarini har taraflama mukammallashtirish zaruriyati mavjud. Jamiyatga xam nazariy xam amaliy bilimga ega, kreativ fikrlovchi yoshlar kerak. Bu jaarayonda Xadicha Sulaymanova ibratini qayta-qayta o'rganish zarurligini davrni o'zi taqozo etmoqda.



International Conferences | Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings
INTERNATIONAL CONFERENCES OF PRACTICE

Bugungi kunda ayollarimizga yaratilgan sharoitlar mamlakatimiz xalqaro miqyosdagi mavqeini jaxonga tanitmoqda.

Ayollarimizning tashabbuskorlik faoliyatini yangi o'ringa olib chiqishda tarixiy faol bo'lgan ayollarimizni o'rnak qilish maqsadga muvofiqdir.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Зулайхо Махкамова. Хотин-қизларни ҳуқуқи ва имкониятларини кенгайтириш адолат ва барқарорлик йўлидир.
2. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. INSON HUQUQLARI XALQARO STANDARTLARI VA MILLIY GENDER MASALALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 33-SON 20.10.2024. 166-170-betlar.
3. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila mustahkamligini ta'minlashda ota, ona, farzandlar tarbiyasi o'rni. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-7 ISSUE-10 (30- October) 44-50. VOLUME 7, ISSUE 10 (30- OCTOBER)
4. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila ma'naviyati-jamiyat taraqqiyoti omili. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. 7-jild 10-son Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.10.2024. 106- 112
5. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Nikoh munosabatlarida milliylik va qonun normalarining amal qilishi. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 13-mart, 2024-yil 7-jild 3-son. 131-135.
6. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ҲУҚУҚИЙ СОҲАДА АЁЛ СИЙМОСИ. MODERN WORLD EDUCATION: NEW AGE PROBLEMS – NEW SOLUTIONS. International online conference. Date: 3 rdFebruary-2025. 40-43-betlar
7. Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna. OILA GENEZISI. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume. 8, Issue 03, March (2025). 231-235-betlar
8. Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna. OILADA MAS'ULIYAT. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). Volume. 8, Issue 03, March (2025).227-230-betlar
**9.** Quvonchbekovna, O. C. The importance of "Kazilik adabi" in Abu Bakr Kasani's work "Badoi-us-sanoe". *International Scientific Journal ISJ Theoretical& Applied Science Philodelphia, USA*, (01).
**10.** Чубоева, О. НИГИЛИЗМ-ҲУҚУҚИЙ ОНГ, ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТНИНГ ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛИДАГИ ХАВФЛИ ОМИЛИ. In *TURKEY International scientific-online conference:" THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH* (No. 1 Part 5).
**11.** Чубоева, О. O „ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TAMINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS/2022–PART, 10.*

International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings
INTERNATIONAL CONFERENCES OF PRACTICE

International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings
INTERNATIONAL CONFERENCES OF PRACTICE
**12.** Чубоева, О. Янги Ўзбекистон–III ренесансида хотин-қизлар ижтимоий ҳимояси. a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022)-Copenhagen: 2022.
**13.** Ozodaxon, C. (2022). Chuboyeva Gulnora. OILA QONUNCHILIGIDA TENGLIK TAMOYILII. JODKOR O 'QITUVCHI JURNALI. 5 NOYABR.
**14.** Чубоева, О. К. (2017). Правовая культура населения. *Молодой ученый*, (19), 250-253.
**15.** Чубоева, О., & Хусаинов, Р. (2023). ТАЪЛИМ ИСЛОХОТЛАРИ-ДАВР ТАЛАБИ. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(1), 12-16.
**16.** Ozodaxon, C. (2022). YOSHLARNING HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISH. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, *1*(11), 17-21.
**17.** Chuboyeva, O., & Abdug'aniyev, T. (2022, November). KORPORATIV NORMA NAZARIYASI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 8, pp. 97-101).
**18.** Ozodaxon, C., & Dilshod, A. (2022). INSON ERKINLIGI HUQUQIY ASOSI-KONSTITUTSIYA. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, *1*(3), 47-50.
**19.** Ozodakhon, C. (2022). New Uzbekistan: Administrative Management Reform. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *9*, 123-125.
**20.** Kuvonbekovna, C. O. (2024). OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI. *PEDAGOG*, *7*(2), 194-198.
**21.** Саидисаков, С. С. (2024). ТИЛ БИЛМОҚ-ЭЛ БИЛМОҚДИР. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, *7*(2), 191-194.
**22.** Chuboyeva, O., & Qahhorov, R. (2023). JINOYAT HUQUQIDA DALILLAR MAQBULLIGI AYRIM MASALALARI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (9), 240-243.
**23.** Chuboyeva, O., & Toshmuhammedov, D. (2023). YANGI TAHRIRDA QABUL QILINGAN OZBEKISTON RESPUBLIKASI KONISTITUTSIYASI—YANGI OZBEKISTON POYDEVORI. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 813-816.
**24.** Чубоева, Г. (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРАҚҚИЁТНИНГ ОМИЛИ. *IJODKOR O'QITUVCHI*, *2*(23), 358-362.
**25.** Ozodaxon, C., & Gulnora, C. (2022). OILA QONUNCHILIGIDA TENGLIK TAMOYILI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, *2*(23), 354-357.
**26.** Chuboyeva, O. (2021, March). THE STATE OF THE JADIDISM MOVEMENT IS DEVELOPING POSITION. In *Конференции*.
**27.** Chubaeva, O. (2020). IN "BADOI-US SANOIJ" OBJECTIVES OF SCIENTIFIC PROBLEMS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *2*(3), 248-254.
**28.** Chuboeva, O. (2020). THE IMPORTANCE OF KAZILIK ADABI IN ABU BAKR KASANIS WORK BADOI-US-SANOE. *Theoretical & Applied Science*, (1), 800-803.